

# **Kasbiy ta'lim agentligi huzuridagi Taxiatosh tuman 1-son texnikumining U S T A V I**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Ustav boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan kasbiy ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinlarda – Texnikum deb yuritiladi)ning maqomi, asosiy maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Texnikum – Milliy malakalar ramkasining 3, 4 va 5 darajalariga mos keluvchi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim tashkiloti hisoblanadi.

3. Texnikum o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining (keyingi o'rinlarda – Vazirlik deb yuritiladi) buyruqlari, boshqa qonunchilik hujjatlari hamda ushbu Ustav asosida amalga oshiradi.

4. Texnikum, Agentlik tasarrufida, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus Texnikum Ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufida faoliyat ko'rsatadi.

Bunda, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus Texnikumni metodik muvofiqlashtirish Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

5. Texnikum oliy ta'lim tashkilotlariga birlashtiriladi. Oliy ta'lim tashkilotlari Texnikumning ta'lim jarayoniga o'quv-metodik hamda moddiy-texnik bazasini yaxshilashga ko'maklashadi.

6. Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi tomonidan Texnikumga respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari kadrlar buyurtmachisi va sanoat hamkori sifatida birlashtiriladi.

7. Texnikumni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hamda o'quvchilarni to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Bunda, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus Texnikum, san'at va madaniyat yo'nalishidagi Texnikum, shuningdek, Agentlik tomonidan xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilish uchun tanlangan Texnikumni saqlash xarajatlari to'liq Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

8. Texnikumda boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash umumiy o'rta ta'lim tashkilotining joriy yilda 9-sinfni tamomlagan o'quvchilar uchun – davlat granti asosida, kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan boshqa talabgorlar uchun – to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.